

# BUVAYDA TUMANI SHEVALARINING FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILIGA DOIR

Anvarjonova Dilzodaxon Akmaljon qizi

*FarDU magistranti*

Ilmiy rahbar:

O`rinboyeva E`zozxon Komolovna

*FarDU o`qituvchisi*

Tel: +99891 157 80 72

## Annotation

Ushbu maqolada Buvayda tumani aholisi shevalarining o`zbek adabiy tilidan fonetik va morfologik jihatdan farqli tomonlari ko`rsatib berilgan.

**Kalit so`zlar:** sheva, fonetik, morfologik xususiyatlar, unlilar, undoshlar, kelishik qo`shimchalar

Adabiy til – umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan va ma`lum normaga solingan formasidir. Demak, o`zbek adabiy tili o`zbek tilining dialektlari, oddiy so`zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiyligi bilan xarakterlanadi. [1:7]

O`zbek adabiy tilining rivojlanishida xalq shevalarining ahamiyati katta. Shuning uchun adabiy til bilan bir qatorda o`zbek shevalarini ham fonetik, leksik, grammatik jihatdan o`rganish, tahlil qilish zarur.

O`zbek shevalarini tadqiq qilishda faqat nazariy jihatdan yondashish to`g`ri emas. Ayniqsa, filologlar, til va adabiyot fani o`qituvchilar - shu soha vakillari uchun o`zbek tilini yana-da rivojlantirishda, kelajak avlodga ta`lim berishda shevalarni amaliy jihatdan o`rganish juda muhim.

Sheva forscha *ravish*, *tarz*, *yo'sin* degan ma'nolarni bildirib, fanda o`ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. [2:4,5]

Ushbu kichik tadqiqot ishimizda o`zbek adabiy tili hamda Buvayda tuman aholisi shevalarining farqli tomonlarini fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. **Shevalarni ekspeditsiya tashkil etish yo`li bilan yozib olish va o`rganish usuliga** ko`ra, Buvayda tumanida yashovchi aholi bilan suhbatlashib, hudud shevasining o`zbek adabiy tilidan ancha farqli ekanligiga guvoh bo`ldik.

Buvayda tumani - Farg`ona viloyatining Qo`qon shahridan shimolroqda joylashgan. Bu tumanda o`n bitta qishloq fuqarolari yig`ini mavjud. Markazi Yangiqo`rg`on qishlog`i. Aholisi, asosan, o`zbeklar, shuningdek, qirg`iz, tatar, tojik, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Buvayda tumani aholisining shevasi qipchoq lahjasи guruhiga mansub bo`lib, Farg`ona viloytining Dang`ara, Furqat, Uchko`prik, Beshariq kabi tumanlari shevalariga o`xshash.

Quyida tuman aholisi bilan o`zaro savol-javob shaklidagi muloqotimizga asosan hudud shevasini fonetik va morfologik jihatdan o`zbek adabiy tilidan farqli jihatlarini ko`rib chiqamiz:

### **Fonetik xususiyatlari:**

-*Умларың узок , ръзқыларың улуғ болсын, йахший йурьылар. Эта- әнаң- лардъ хурсанд қъльылар.*

*Умларың* - umrlaring, *қъльылар* - qilinglar:

Kontrast juft unlilar: i - old qator, yuqori tor, lablanmagan unlining ъ- orqa qator, yuqori tor, lablanmagan, ы unlisining qisqa varianti shaklida talaffuz qilinadi.

Adabiy tildagi ng - til orqa, sonor, burun tovushi hudud shevasida н - chuqur til orqa, sonor, burun tovushiga o`tadi.

*-Менъям съларга охшаган йъгърматта неварам, оттъзта чеварам бозанда.*

*Менъям* – mening ham:

h – sirg`aluvchi, bo`g`iz tovushining й – sirg`aluvchi, til orqa undoshiga o`tib ikki so`zning qo`shilib ketishi kuzatiladi. Bu hodisa tilshunoslikda sandhi hodisasi deyiladi. Bunda ikki so`zning talaffuzi jarayonida oldingi so`z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so`z) tovushga moslashadi, yoki dastlabki so`zning oxirgi tovushi (keying so`z unli bilan boshlansa) jaranglashadi.[3:23]

Йъғърматта-yigirmata, бозанда-bo`lganda:

g - til orqa, portlovchi undoshning f - chuqur til orqa, sirg`aluvchi undosh holida talaffuz qilinish holatlari uchraydi.

Отмъзта - o`ttizta:

i – old qator, yuqori tor, lablanmagan unlining ъ – indifferent, old qator, lablanmagan unli tarzida talaffuz qilinadi.

-Сылардь әккь күн мәхмөн қыламан. Жәй кон.

Әккь – ikki:

i – tovushining e- ə va e unlilariga yaqin turadigan, old qator o`rta keng, lablanmagan unli tarzida talaffuz qilinishi kuzatiladi.

Күн- kun:

u – orqa qator, yuqori tor, lablangan unlisining γ- old qator, yuqori tor, lablangan unliga o`tib qoladi.

Жәй- joy:

o- orqa qator, quyi keng, qisman lablangan unlisining ə- old qator, quyi keng, lablanmagan unliga o`tish holati uchraydi.

-Быз әлдьын нариоқта йәшиәрдьк. Бу жәйлар ҳам йаҳиш лекын. Мәхәлләда әдам кон. Мәктәб йақын, әлдьын бейлар пахта жәй әдь.

Йәшиәрдьк- yashardik, мәхәлләда- mahallada, мәктәб- maktab:

a - old qator, quyi keng, lablanmagan unlining ə- old qator, quyi keng, lablanmagan, e tovushiga yaqin tovush tarzida talaffuz qilinadi.

k – til orqa, portlovchi undoshning o`rniga κ – chuqur til orqa, portlovchi tovush ishtirok etadi.

-Бызың дәверлар бошқача әдь. Быр торғам нондың ҳам әдамлар зорға топыб йердь. Зогора, әрпә нонлар йердьк.

Дәверлар – davrlar

a – old qator, quyi keng, lablanmagan unlisi o`rniga ə - orqa qator, quyi keng, qisman lablangan unlisi qo`llanadi.

-Анетта әнжър бэр, төвъп йеңлар пышганың. Бъзда әнжър копъна.

Adabiy tildagi *anavi yerda* so`zi Buvayda tumani aholisi shevalarida *анетта* formasida kuzatildi. Bu so`z Farg`ona viloyatining boshqa ko`p tumanlarida ham shu shaklida qo`llanadi.

*Төвъп* – topib:

P – lab-lab, portlovchi undosh в- lab-tish, sirg`aluvchi undoshga o`tadi; Jarangli undoshning jarangsizlashuvi kuzatiladi; o – quyi keng unlisining o – o`rta keng unlisi sifatida ifodalanadi.

-Йошлықда энди шу оқышты битъръб армийага бэрғанмыз әккъ йылъыққа. Эйга ҳам бэръб келганимыз.

-Бәйда әнам бэр. Ҳозыр бэзэрға кетган, озғына вахтдан соң қайтадь.

*U yer* so`zining *әү* tarzida, *bu yer* so`zining qisqarib *бәү* tarzida talaffuz qilinishi kuzatiladi.

*Baxm* – vaqt:

Q undoshi x undoshiga o`tadi. Yoki aksincha x undoshi q undoshiga ham o`tishi mumkin.

### Morfologik xususiyatlari:

1. *СТА- әнаңлардъ, сълардъ, нондъ* kabi so`zlarda tushum kelishigi qo`shimchasi -ni jarangli va sonor undoshdan so`ng qo`shilib, -дъ tarzida ifodalanadi. Jarangsiz undoshdan keyin qo`shilsa –ть bo`lib o`zgaradi. Masalan, *оқышты* so`zida sh jarangsiz undosh bo`lganligi uchun o`zakka –ть ko`rinishida birikadi.

2. *Армийага, съларға* so`zlarida –га jo`nalish kelishigi qo`shimchasi –ға shaklida qo`shilsa, *йылъыққа* so`zida esa yasalish asosidagi k tovushining q га o`tishi jo`nalish kelishigi qo`shimchasi –ка ni ham –қа shakliga o`tishiga sabab bo`ladi.

3. *Охиаған* so`zida –ган sifatdosh yasovchi qo`shimcha –ған tarzida talaffuz qilinadi.

4. *Копъна* so`zida –гина kichraytirish-erkalash qo`shimchasi - ғына tarzida ifodalanadi.

5.-да o`rin-payt kelishigi qo`shimchasini jarangsiz undoshdan so`ng kelganda, -та shaklida qo`llanishi ham kuzatiladi: *нариоқта йәшиәрдъек*.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`zbek shevalari o`zbek adabiy tili bilan fonetik, morfologik, leksik hamda grammatik jihatdan farqlanadi. Bu holat, ayniqsa, fonetik va morfologik sathlarda yaqqol ko`zga tashlanadi. Xalq shevalari adabiy tilning boyishi va taraqqiy etishida muhim omil bo`lib xizmat qilar ekan, ularni har bir sath doirasida qiyosiy tadqiq qilish o`zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili.- Toshkent: O`qituvchi, 1980-yil.
2. Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi.- Toshkent: "Navro`z" nashriyoti, 2016-yil.
3. Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi.- Toshkent: "Navro`z" nashriyoti, 2016-yil.

### Internet saytlari:

1. Uz.m.wikipedia. org
2. Taqvim.uz
3. researchedu. org